

# Buxoro viloyat statistika boshqarmasi



## 2019 yilning yanvar oyida Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

### RAQAMLAR:



Sanoat ishlab chiqarish hajmi

1046,0  
mlrd so'm

o'sish sur'ati  
102,1 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan **1046,0 mlrd.so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

287,0 mlrd  
so'm

o'sish sur'ati  
105,1%



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 101,9 % ga, elektr, gaz, bug', bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 106,0 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 150,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi  
**24,2 %** ni tashkil etdi

2019 yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.



Jami sanoat  
(100 %)



## 2019 yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **87,9 mlrd.so'mni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **8,4 %** ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar – **134,2 %** ga oshgan. Xom neft va tabiiy gaz qazib olish – **93,5 %** ga, tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat – **92,0 %** ga kamayganligini kuzatish mumkin.



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **11,0 mlrd.so'm** ni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,1 %** ni) tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **46,0 mlrd.so'mni** (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **4,4 %** ni) tashkil etdi.



### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**


Ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **901,1 mlrd so'mni** (jami ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari hajmining 86,1 % ni) tashkil etdi.



### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan choratadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **287,0 mlrd.so'mni** tashkil etdi va 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan **105,1 %** ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa **27,4 %** ni tashkil etdi.

### **2019 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

**Neft, ming t.**

1,6



1,7

106,3 ↑

**Tabiiy gaz, mln.kub.m.**

402,4



376,5

93,6 ↓

**Gaz kondensati, ming t.**

5,0



4,5

90,0 ↓

**Asfaltli aralashmalar, t.**

1448,5




1600,0

110,5 ↑

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018 yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019 yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>Aroq (ming litr 100% spirt)</b>			
141,5		87,1	61,6 
<b>Uzum musallasi (vino) (ming litr)</b>			
80,5		15,6	19,4 
<b>Un mahsuloti (tonna)</b>			
5500,6		7438,1	135,2 
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>			
17,6		15,5	88,1 
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.</b>			
2,9		3,4	117,2 
<b>Avtomobil benzini, ming t.</b>			
62,6		44,4	70,9 
<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>			
38,4		54,0	140,6 
<b>Mazut, ming t.</b>			
8,4		6,4	76,2 


## **Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**




2018 yilning yanvar oyliga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 55,1 % dan 2019 yilning yanvar oyida 64,1 % ga oshishi kuzatilmoqda.

### **2019 yil yanvar oyida Tuman (shahar)lar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,1 %), Buxoro shahar (13,2 %), Romitan tumani (8,0 %), Gijduvon tumani (6,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**2019 yil yanvar oyida tuman (shahar)lar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**



Viloyat xalq istemol mollari ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Buxoro shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 24,7 %), Qorovulbozor tumani (21,0 %), G'ijduvon (8,7 %), Romitan tumani (6,2 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan **102,3 %** ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa **24,2 %** ni tashkil etmoqda.

### **2019 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**

